© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

ARAB TILIDAGI KAUZATIV BOBLAR VA O'ZBEK TILIDAGI ORTTIRMA NISBAT: MORFOLOGIK VOSITALARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI

Odiljonov Xalilillo Qudratillo o'g'li
+998771325700
Xalilodiljonov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada arab tilidagi kauzativ ma'noli fe'l boblari (IV bob أَفْعَلَ, II bob فَعَّلَ, X bob اِسْتَفْعَلَ) va o'zbek tilidagi orttirma nisbat qo'shimchalari (-t, -dir/-tir, -ir, -ar, -iz, -giz, -kaz, -sat) formal, distributiv va semantik jihatdan chog'ishtiriladi. Tahlil ikki tizim o'rtasidagi to'rt asosiy farqni ko'rsatadi: kauzativ vosita turi (ichki flektsiya va affiksatsiya), unumdorlik darajasi, vositalarning ko'p ma'noliligi hamda ketma-ket qo'llanish imkoniyati. Shuningdek, kauzatsiyalanuvchining sintaktik shakli ikki tilda turlicha belgilanishi aniqlandi: arab tilida u doimo to'ldiruvchi (maf'ul bih) bo'lsa, o'zbek tilida asos fe'lning o'timliligiga qarab tushum yoki jo'nalish kelishigida keladi. Natijalar tarjima amaliyoti va arab tilini o'zbek auditoriyasiga o'qitishda qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar: kauzativ fe'l, mazid fe'l boblari, af'ala, fa"ala, orttirma nisbat, unumdorlik, valentlik, chog'ishtirma morfologiya.

Аннотация. В статье в формальном, дистрибутивном и семантическом аспектах сопоставляются арабские глагольные породы с каузативным значением (IV — af'ala, II — fa"ala, X — istaf'ala) и узбекские аффиксы понудительного залога (-t, -dir/-tir, -ir, -ar, -iz, -giz, -kaz, -sat). Выявлены четыре основных различия: тип каузативного средства (внутренняя флексия и агглютинация), степень продуктивности, многозначность средств и возможность их последовательного присоединения. Установлено также различное оформление каузируемого: в арабском он всегда является дополнением (maf'ul bih), в узбекском — в зависимости от переходности исходного глагола выступает в винительном или дательном падеже. Результаты применимы в переводческой практике и в преподавании арабского языка узбекской аудитории.

Ключевые слова: каузативный глагол, производные породы, af'ala, fa"ala, понудительный залог, продуктивность, валентность, сопоставительная морфология.

Abstract. The article compares Arabic derived verb forms with causative meaning (Form IV af'ala, Form II fa"ala, Form X istaf'ala) and Uzbek causative voice suffixes (-t, -dir/-tir, -ir, -ar, -iz, -giz, -kaz, -sat) in formal, distributional and semantic terms. Four main differences are identified: the type of causative device (internal flexion vs. agglutination), productivity, polysemy of the devices, and the possibility of stacking. The causee is also marked differently: in Arabic it is always an object (maf'ul bih), while in Uzbek it appears in the accusative or dative case depending on the transitivity of the base verb. The findings can be applied in translation practice and in teaching Arabic to Uzbek learners.

Keywords: causative verb, derived verb forms, af'ala, fa"ala, causative voice, productivity, valency, contrastive morphology.

Kirish. Kauzativlikning eng ixcham va eng ko'p tarqalgan ifoda usuli — morfologik usul, ya'ni asos fe'lning o'zida yuz beradigan o'zgarish [14; 15]. Arab va o'zbek tillari ham kauzativlikni asosan morfologik yo'l bilan ifodalaydi, ammo ularning morfologik mexanizmlari tubdan farq qiladi. Arab tilida kauzativ fe'l uch undoshli ildizning boshqa qolipga (vaznga) o'tishi orqali yasaladi: جَلَسَ (jalasa) "o'tirdi" → أَجْلَسَ (ajlasa) "o'tqazdi". O'zbek tilida esa o'zgarmas o'zakka qo'shimcha qo'shiladi: o'tir- → o'tqaz-.

Bu farq amaliy jihatdan ham muhim. Arab tilini o'rganayotgan o'zbek talabasi o'z ona tilidagi "o'zak + qo'shimcha" modelini arab tiliga ko'chirishga moyil bo'ladi. Bu esa ikki xil xatoga olib keladi: birinchidan, har bir fe'ldan kauzativ bob yasash mumkin deb o'ylash; ikkinchidan, II va IV

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

boblarning har qanday shaklini faqat kauzativ deb tushunish. Tarjimada ham shunga o'xshash muammolar yuzaga keladi: arab tilidagi bitta bob o'zbek tilida turli vositalar bilan berilishi mumkin.

Arab tilidagi kauzativ boblar arabshunoslikda keng o'rganilgan [1; 4; 5; 6]. O'zbek tilidagi orttirma nisbat qo'shimchalari ham grammatik tavsiflarda keltirilgan va so'nggi yillarda kauzativlik nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilmoqda [11; 12; 13]. Biroq ikki tilning morfologik kauzativ vositalari tizimli chog'ishtirilmagan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab tilidagi kauzativ boblar. Klassik va zamonaviy grammatikalarda IV bob (أَفْعَلَ) kauzativlikning asosiy vositasi sifatida, II bob (فَعَّلَ) esa kauzativ va intensiv ma'nolarni birlashtiruvchi bob sifatida tavsiflanadi [1; 2; 3]. F. Leemhuis Qur'on materialida II va IV boblarning funksional farqlarini maxsus tadqiq etgan [4]. G. Saad kauzatsiyani o'timlilik va majhullik bilan bog'liq tizimda ko'rib chiqqan [5]. A. Măcelaru adabiy arab tilida kauzatsiyaning ikki asosiy morfologik vositasi II va IV boblar ekanini, ayrim hollarda III va X boblar ham kauzativ ma'no berishini ko'rsatgan; u bu boblarning hech biri faqat kauzativ emasligini ta'kidlaydi [6]. A. Fassi Fehri kauzativlik, o'timlilik va iterativlikni ko'plik (pluralik) ma'nosining turli ko'rinishlari sifatida talqin qilgan [8]. K. Alaslani eksperiment yo'li bilan arab tili tashuvchilari kauzativ shakl tanlashda bevosita va bilvosita kauzatsiya farqiga tayanishini tekshirgan [7].

O'zbek tilidagi orttirma nisbat. O'zbek tilidagi orttirma nisbat qo'shimchalarining inventari va fonetik taqsimoti grammatik tavsiflarda berilgan [9; 10]. B. Turniyazov va S. Saidova orttirma nisbat qo'shimchalarining ketma-ket qo'shilishi va o'zaro valentligini tahlil qilib, kauzativ shakllarning "derivatema" va "kauzatema" farqini taklif etgan [11, 73–75-b.]. B. Sharipov kauzativlikning retsiproklik (birgalik nisbati) bilan birikib kelishini o'rgangan [13].

Morfologik kauzativlarning tipologik tasnifi Leningrad tipologiya maktabi ishlarida ishlab chiqilgan [14]. R. Dixon kauzativ vositalarning formal turlarini — ichki o'zgarish, affiksatsiya, takror (reduplikatsiya) va boshqalarni — tizimlashtirgan [16]. M. Haspelmath o'timsiz-kauzativ fe'l juftliklarida qaysi a'zo asos, qaysi biri hosila ekanini tillararo tekshirgan [17].

Tadqiqotda chog'ishtirma-tipologik usul, morfologik (morfemik) tahlil, distributiv tahlil va transformatsion usul qo'llandi. Arab tilidagi misollar grammatikalar va lug'atlardan [1; 3; 18], o'zbek tilidagi misollar grammatik tavsiflar va ilmiy adabiyotlardan [9; 10; 11] olindi. Arab misollari harakatlari bilan, transliteratsiya va o'zbekcha tarjima bilan beriladi. Misollar illyustrativ bo'lib, unumdorlik bo'yicha xulosalar sifat jihatidan chiqarildi; miqdoriy ko'rsatkichlar korpus asosida alohida aniqlanishi kerak.

Natijalar.

1. Arab tilidagi kauzativ boblar

Arab tilida kauzativ ma'no asosan uchta mazid bob orqali ifodalanadi. Har bir bob kauzativlikdan tashqari boshqa ma'nolarga ham ega [1; 3; 6].

Bob	Qolip	Kauzativ ma'noda: asos → hosila	Kauzativdan boshqa ma'nolari
IV	أَفْعَلَ (af'ala)	خَرَجَ "chiqdi" → أَخْرَجَ "chiqardi"; جَلَسَ "o'tirdi" → أَجْلَسَ "o'tqazdi"; ضَحِكَ "kuldi" → أَضْحَكَ "kuldirdi"	vaqtga kirish: أَصْبَحَ "tongga kirdi"; otdan fe'l: أَثْمَرَ "meva berdi" (ثَمَر "meva")
II	فَعَّلَ (fa"ala)	عَلِمَ "bildi" → عَلَّمَ "o'rgatdi"; فَرِحَ "xursand bo'ldi" → فَرَّحَ "xursand qildi"; ذَكَرَ "esladi" → ذَكَّرَ "eslatdi"	ko'plik va shiddat: كَسَّرَ "chil-chil sindirdi"; otdan fe'l: جَلَّدَ "muqovaladi" (جِلْد "teri"); ajratish: قَشَّرَ "po'stini archdi" (قِشْر "po'st")
X	اِسْتَفْعَلَ (istaf'ala)	ayrim fe'llarda: اِسْتَخْرَجَ "chiqarib oldi, qazib oldi"	so'rash: اِسْتَأْذَنَ "ruxsat so'radi"; deb hisoblash: اِسْتَحْسَنَ "ma'qul topdi"

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Jadvaldan ko'rinadiki, X bobda kauzativ ma'no chekka (periferik) hodisa, IV va II boblarda esa u asosiy ma'nolardan biri. Biroq II bobda kauzativlik intensivlik bilan raqobatlashadi, shuning uchun bir xil qolip kontekstga qarab turlicha talqin qilinadi [6].

Arab tilida kauzativ bob har bir fe'ldan yasalmaydi: ildizdan qaysi bob yasalishi va u qanday ma'no berishi lug'atda alohida qayd etiladi [18]. Masalan, "o'ldirmoq" ma'nosi odatda alohida ildizli قَتَلَ fe'li bilan beriladi, مَاتَ "o'ldi" fe'lidan yasalgan أَمَاتَ esa asosan diniy matnlarda qo'llanadi.

2. O'zbek tilidagi orttirma nisbat qo'shimchalari

O'zbek tilida kauzativ ma'no o'zakka orttirma nisbat qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Qo'shimchalar unumdorligi bo'yicha keskin farq qiladi [9; 10; 11].

Qo'shimcha	Misollar	Unumdorligi
-t / t-	o'qi-t-, ishla-t-, kuyla-	yuqori (asosan unli bilan tugagan o'zaklarda)
-dir / -tir / tir-	yoz-dir-, kul-dir-, kel-	yuqori (asosan undosh bilan tugagan o'zaklarda)
-ir / ir-	ich-ir-, pish-ir-, tush-	cheklangan, leksik tanlovli
-ar	chiq-ar-, qayt-ar-	cheklangan
-iz	tom-iz-, oq-iz-	cheklangan
-giz / -kiz / -g'iz / -qiz	kir-giz-, tur-g'iz-	cheklangan
-kaz / -g'az / -qaz	o't-kaz-, yet-kaz-	cheklangan
-sat	ko'r-sat-	yakka holat

Demak, o'zbek tilida kauzativ shakl yasashning ikkita unumdor modeli (-t va -dir/-tir) va bir qancha cheklangan, leksik jihatdan tanlovli qo'shimchalari bor.

3. Kauzatsiyalanuvchining sintaktik shakli

Ikki tilda kauzatsiyalanuvchi (harakatni bajarishga undalgan shaxs) turlicha shakllanadi.

O'timsiz asos fe'l. Ikkala tilda ham kauzatsiyalanuvchi to'g'ri to'ldiruvchiga aylanadi:

- أَجْلَسْتُ الوَلَدَ (ajlastu l-walada) — Bolani o'tqazdim.

O'timli asos fe'l. Arab tilida kauzatsiyalanuvchi ham, asl to'ldiruvchi ham to'ldiruvchi (nasb) shaklida keladi — ikki maf'ulli konstruksiya hosil bo'ladi. O'zbek tilida esa kauzatsiyalanuvchi jo'nalish kelishigiga o'tadi:

- أَرَيْتُ الوَلَدَ الصُّورَةَ (araytu l-walada ṣ-ṣūrata) — Bolaga rasmni ko'rsatdim.
- عَلَّمْتُ الطُّلَّابَ القِرَاءَةَ ('allamtu ṭ-ṭullāba l-qirā'ata) — Talabalarga o'qishni o'rgatdim.

4. Ketma-ket kauzativlash

O'zbek tilida orttirma nisbat qo'shimchalari bir o'zakka ketma-ket qo'shila oladi va har bir qo'shimcha kauzativ vaziyatga yangi ishtirokchi qo'shadi: o'qi-t-dir- "o'qitishga undamoq" [11, 74-b.]. Arab tilida esa kauzativ bobdan yana kauzativ bob yasalmaydi. Ikki bosqichli kauzatsiya analitik konstruksiya bilan beriladi, masalan: جَعَلَهُ يُعَلِّمُ ... "uni ... o'rgatishga majbur qildi".

Muhokama. Natijalar ikki tizim o'rtasida to'rt asosiy farq borligini ko'rsatadi.

1. Vosita turi. R. Dixon tasnifiga ko'ra [16], arab tilidagi kauzativ ichki o'zgarish (qolip almashuvi) va prefiks (hamza) yordamida, o'zbek tilidagi kauzativ esa suffiks yordamida yasaladi. Arab tilida kauzativlik ildizning "ichida" yuz beradi, o'zbek tilida esa o'zakning "tashqarisida". Shu

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

sababli o'zbek tilida asos fe'l kauzativ shaklda ham doimo aniq ko'rinadi (yoz- → yozdir-), arab tilida esa asosni aniqlash uchun ildizni ajratish kerak bo'ladi.

2. Unumdorlik. Arab boblari leksiklashgan: har bir ildizdan kauzativ bob yasalmaydi, mavjudlari esa lug'atda alohida qayd etiladi. O'zbek tilidagi -t va -dir/-tir qo'shimchalari esa yuqori unumdor. Bu farq arab tilini o'rganayotgan o'zbek talabalarining tipik xatosini tushuntiradi: ular o'zbek tilidagi kabi istalgan fe'ldan kauzativ bob yasashga urinadi.

3. Ko'p ma'nolilik. Arab tilidagi II va IV boblar ko'p ma'noli, o'zbek tilidagi orttirma nisbat qo'shimchalari esa asosan kauzativ ma'noga ixtisoslashgan. Shu bilan birga, ikki tilda ham kauzativ shakllarning leksiklashuvi kuzatiladi. Qiziq parallel misol: arab tilida قَامَ "turdi" fe'lidan yasalgan أَقَامَ "tadbir o'tkazdi, barpo etdi" ma'nosini oladi (أَقَامَ حَفْلَةً "tantana o'tkazdi"), o'zbek tilida ham o't- fe'lidan yasalgan o'tkaz- xuddi shu ma'noda (tadbir o'tkazmoq) qo'llanadi. Ikki tilda ham harakat fe'lining kauzativi tadbirni tashkil etish ma'nosiga ko'chgan.

4. Ketma-ketlik va sintaksis. O'zbek tilida kauzativ qo'shimchalar ketma-ket qo'llanib, kauzativ zanjir hosil qila oladi, arab tilida bu imkoniyat yo'q. Kauzatsiyalanuvchining shakli ham farq qiladi: o'timli asos fe'lda arab tili ikki to'ldiruvchini bir xil shaklda (nasb) beradi, o'zbek tili esa ularni kelishik orqali farqlaydi (jo'nalish va tushum). Tipologiyada qayd etilgan qonuniyatga ko'ra, kauzatsiyalanuvchi sintaktik ierarxiyada bo'sh turgan eng yuqori pozitsiyani egallaydi [15]. O'zbek tili bu qonuniyatga to'liq mos keladi, arab tili esa ikkinchi to'g'ri to'ldiruvchiga yo'l qo'yib, undan chetlashadi.

Amaliy ahamiyati. Arabchadan o'zbekchaga tarjimada II bob shakllarini avtomatik ravishda kauzativ deb berish xatoga olib keladi (كَسَّرَ "sindirtirdi" emas, "chil-chil sindirdi"). Ikki to'ldiruvchili arab konstruksiyalarida esa kauzatsiyalanuvchini jo'nalish kelishigiga o'tkazish kerak. O'zbekchadan arabchaga tarjimada esa unumdor -dir/-tir shakllarining ko'pchiligi uchun tayyor bob topilmaydi va analitik konstruksiyadan foydalanishga to'g'ri keladi. Bu masala keyingi maqolada kauzativ ma'no turlari misolida batafsil ko'riladi.

Xulosa. Arab tilida morfologik kauzativlik asosan IV (أَفْعَلَ) va II (فَعَّلَ) boblar, chekka holatlarda X bob (اِسْتَفْعَلَ) orqali ifodalanadi. O'zbek tilida bu vazifani sakkiz guruh orttirma nisbat qo'shimchalari bajaradi, ulardan faqat -t va -dir/-tir unumdor. Arab kauzativ boblari leksiklashgan va ko'p ma'noli, o'zbek orttirma nisbat shakllari esa unumdor va asosan kauzativ ma'noga ixtisoslashgan. O'zbek tilida kauzativ qo'shimchalar ketma-ket qo'llana oladi, arab tilida esa ikki bosqichli kauzatsiya faqat analitik yo'l bilan beriladi. O'timli asos fe'lda kauzatsiyalanuvchi arab tilida to'ldiruvchi (nasb), o'zbek tilida jo'nalish kelishigi shaklida keladi. Aniqlangan farqlar arab tilini o'zbek auditoriyasiga o'qitishda va ikki til o'rtasidagi tarjimada hisobga olinishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Wright W. A Grammar of the Arabic Language. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 1896–1898.
2. Fischer W. A Grammar of Classical Arabic / Transl. by J. Rodgers. 3rd rev. ed. – New Haven; London: Yale University Press, 2002.
3. Ryding K. C. A Reference Grammar of Modern Standard Arabic. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
4. Leemhuis F. The D and H Stems in Koranic Arabic: A Comparative Study of the Function and Meaning of the faʿʿala and ʾafʿala Forms in Koranic Usage. – Leiden: E. J. Brill, 1977.
5. Saad G. N. Transitivity, Causation and Passivization: A Semantic-Syntactic Study of the Verb in Classical Arabic. – London; Boston; Melbourne: Kegan Paul International, 1982.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

6. Măcelaru A. Semantic parameters and Literary Arabic Form II causatives // Romano-Arabica. – 2003. – Vol. 3, No. 1. – P. 199–207.
7. Alaslani K. On the Causative Verb Forms of Arabic: Form I and Form II and Their Associations with (In)directness of Causation: PhD dissertation. – West Lafayette: Purdue University, 2023.
8. Fassi Fehri A. Causativity, transitivity and iterativity as pluralities // Linguistic Research. – Rabat: IERA, 2001. – Vol. 6. – P. 1–49.
9. Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1960.
10. O'zbek tili grammatikasi. 1-tom. Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1975.
11. Turniyazov B. N., Saidova S. S. Affiksatsiya usulida kauzativlikning voqelanishi // Xorijiy filologiya. – 2020. – № 4 (77). – B. 72–77. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.foreign_philology.1585.
12. Turniyozov B. N. Kauzativlikning semantik maqomi // Xorijiy filologiya. – 2019. – № 2 (71). – B. 43–46. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.foreign_philology.985.
13. Sharipov B. Kauzativ retsiproklikning ma'no turlari // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. – 2024. – URL: https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics
14. Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив / Отв. ред. А. А. Холодович. – Л.: Наука, 1969.